


**Buxoro viloyatida
nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi**
2025-yil yanvar-mart oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan
ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi**

Buxoro viloyatida 2025- yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi 4 763,9 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,5 % ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025- yilning yanvar-mart oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	4 763,9	118,5
Buxoro shahri	5 786,1	122,3
Kogon shahri	6 598,1	114,0
Olot tumani	3 553,8	102,6
Buxoro tumani	3 914,5	114,7
Vobkent tumani	3 442,1	124,6
G'ijduvon tumani	3 445,2	113,3
Kogon tumani	5 540,9	152,3
Qorako'l tumani	3 533,6	116,3
Qorovulbozor tumani	6 897,0	113,1
Peshku tumani	3 452,8	111,0
Romitan tumani	4 180,2	120,4
Jondor tumani	3 256,6	106,2
Shofirkon tumani	3 199,4	116,4

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqilari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari bir qator hududlarda kuzatildi. Jumladan, Kogon tumani bu borada yetakchilik qilib, o'rtacha oylik ish haqi 5 540,9 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 152,3 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Vobkent tumanida 3 442,1 ming so'mni (o'tgan mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,6%), Buxoro shahrida 5 786,1 ming so'mni (122,3%), Romitan tumanida 4 180,2 ming so'mni (120,4%), Shofirkon tumanida 3 199,4 ming so'mni (116,4%) va Qorako'l tumanida 3 533,6 ming so'mni (116,3%)ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Olot tumanida 3 553,8 ming so'mni (102,6%), Jondor tumanida 3 256,6 ming so'mni (106,2%), Peshku tumanida 3 452,8 ming so'mni (111,0%), Qorovulbozor tumanida 6 897,0 ming so'mni (113,1%), G'ijduvon tumanida 3 445,2 ming so'mni (113,3%), Kogon shahrida 6 598,1 ming so'mni (114,0%) hamda Buxoro tumanida 3 914,5 ming so'mni (114,7%) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025- yilning yanvar–mart oylariga oid bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, %da
Sanoat	6 216,7	127,7
Qurilish	4 807,7	105,0
Savdo	5 430,5	112,1
Tashish va saqlash	7 752,2	114,4
Yashash va ovqatlanish	3 208,3	119,7
Axborot va aloqa	9 509,8	120,8
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	15 624,7	150,5
Ta'lim	3 650,9	117,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 719,6	122,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	4 604,2	133,1
O'rtacha	4 763,9	118,5

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 150,5% ni, ish haqi miqdori esa 15 624,7 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, san'at, ko'ngil ochish va dam olish yo'nalishlarida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 4 604,2 ming so'mni tashkil etib, o'sish 133,1% ga, sanoat sohasida ish haqi miqdori 6 216,7 ming so'mni tashkil etib, 127,7% ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida o'rtacha ish haqi 3 719,6 ming so'mni tashkil etib, 122,2% ga, axborot va aloqa sohalarida esa 9 509,8 ming so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 120,8% ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi qurilish sohasida 4 807,7 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,0% ga, savdo sohasida 5 430,5 ming so'm ni tashkil etib, 112,1% ga, tashish va saqlash sohasida 7 752,2 ming so'mni tashkil etib, 114,4% ga, ta'lim sohasida 3 650,9 ming so'mni tashkil etib, 117,2 % ga, yashash va ovqatlanish yo'nalishida 3 208,3 ming so'mni tashkil etib, 119,7% ga o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 1-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 15 624,7 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 10 397,7 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 7 089,0 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 3 631,8 ming so'mga, sanoat sohasida 3 050,4 ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 2 532,4 ming so'mga, qurilish sohasida 1 771,6 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 6 216,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 8 285,9 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 6 150,2 ming so'm, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 4 723,2 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida 4 294,6 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, *ming so'm*




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 5 430,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va motosikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 6 535,2 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 5 489,1 ming so'mni, avtomobil va motosikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohosi 3 393,8 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, *ming so'm*




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi 7 752,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori quruqlikdagi va quvur transporti 7 967,2 ming so'mni, ombor xo'jaligi va yordamchi transport sohasida 6 541,9 ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 3 115,0 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 9 509,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi aloqa sohasi 9 841,9 ming so'mni, axborot xizmati ko'rsatish 2 594,8 ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 15 624,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat 15 771,0 ming so'mni, majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 11 945,6 ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 3 650,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 8 267,3 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 4 321,5 mingni so'm, umumiy o'rta ta'lim 3 970,4 mingni so'm, texnik va professional ta'lim 3 838,6 ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasi 2 067,1 ming so'mni tashkil etgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishlog xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxonalar va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralari yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

